

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari227

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari231

IQTISODIYOT**X.X.Bozarov**

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish235

U.X.Gulmatov

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari239

FALSAFA**M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov**

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati246

Q.Sulaymonov

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi253

X.A.Yulbarsova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari258

I.A.Asatulloev

Alfred Adlerning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi264

I.A.Suvanov

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar268

M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi273

M.K.Soipova

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlari tushunchasining mazmun mohiyati277

I.B.Toshpo'latov

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati281

3.C.Касимова

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации284

SIYOSAT**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondag'i tashabbuslari290

O'.N.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati296

M.T.Musayev

Globallashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri300

G.S.Ro'ziyeva

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi305

TARIX**B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov**

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida311

J.Sultonov

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli318

X.X.Azimov

Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati329

J.Z.Axmedov



УО'К: 93/99+330.09,330.18

**O'ZBEK-XITOY QO'SHMA XALQARO ARXEOLOGIK EKSPEDITSIYASINING
MINGTEPA SHAHAR XAROBASIDA OLIB BORGAN ILMUY IZLANISHLARI NATIJALARI
XUSUSIDA**

**О РЕЗУЛЬТАТАХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ СОВМЕСТНОЙ
УЗБЕКСКО-КИТАЙСКОЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕДИЦИЕЙ НА
РУИНАХ ГОРОДА МИНГТЕПА**

**REGARDING THE RESULTS OF SCIENTIFIC RESEARCH CONDUCTED BY THE
JOINT UZBEK-CHINESE INTERNATIONAL ARCHAEOLOGICAL EXPEDITION IN MINGTEPA
CITY RUINS**

Matboboyev Boqijon Xoshimovich

O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologik tadqiqotlar instituti bo'lim mudiri tarix fanlari
doktori, professor

Aloloxunov Alisher Ahmadjonovich 

Farg'ona davlat universiteti jahon tarixi kafedrasи dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Farg'ona vodiysi antik davrining yirik arxeologik yodgorligi bo'l mish Mingtepa shahar xarobasida olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida qo'lg'a kiritilgan ilmiy yangiliklar – shaharning tarkibiy tuzilishi (ark, ichki shahar va tashqi shahar), moddiy madaniy qatlamlari stratigrafiysi, mudofaa tizimi va bu yerda yashagan aholining hunarmandchiligi, san'ati, urf-odati, diniy tasavvurlari to'g'risidagi ma'lumotlар bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье представлены научные данные, в ходе проведённых археологических исследований совместно Узбекско-Китайской международной археологической экспедицией на руинах Мингтепы, который является крупным археологическим памятником античного периода Ферганской долины. В ходе экспедиции получены результаты о структурном строение города (арка, внутренний город и внешний город), стратиграфии материальных культурных слоев, системе обороны и сведения о ремеслах, искусстве, обычаях и религиозных представлениях живших здесь людей.

Abstract

This article presents scientific data from archaeological research carried out jointly by the Uzbek-Chinese international archaeological expedition on the ruins of Mingtепа, which is a major archaeological site of the ancient period of the Fergana Valley. During the expedition, results were obtained about the structural structure of the city (arch, inner city and outer city), stratigraphy of material cultural layers, defense system and information about the crafts, art, customs and religious beliefs of the people who lived here.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi, Mingtепа shahar xarobasi, ichki va tashqi shahar, mudofaa tizimi, paxsa devor va xom g'ishtlar, madaniy qatlam, stratigrafiya, kulolchilik buyumlari, toshqol parchalari, dafn marosimlari va diniy e'tiqodlar.

Ключевые слова: Ферганская долина, Узбекско-Китайская международная археологическая экспедиция, руины города Мингтепа, внутренний и внешний город, оборонительная система, глиновитовые стены и сырцовый кирпич, культурный слой, стратиграфия, керамика, обломки камня, погребения и религиозные верования.

Key words: Fergana Valley, Uzbek-Chinese International Archaeological Expedition, tepe City Ruins, Inner and Outer City, Defense System, Straw Walls and Raw Bricks, Cultural Layer, Stratigraphy, Pottery, Stone Fragments, Burials and Religious Beliefs.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida o'tmish tariximizga munosabat keskin o'zgarib davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Madaniy merosimizni o'rganish, ta'mirlash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish borasida ko'plab ilmiy-amaliy ishlar qilinmoqda. Ko'hna tariximiz xorijlik mutaxassislarda ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Yevropa, Amerika, Osiyo mamlakatlarining tarixchi, etnograf, arxeolog, antropolog olimlari o'tmish tariximizni tadqiq etishda qatnashmoqdalar. Qadimshunos olimlarimizni xorijlik arxeologlar bilan hamkorlikdagi qo'shma arxeologik ekspeditsiyalari yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqda. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy FA Arxeologiya instituti va O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologik tadqiqotlar instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Farg'ona vodiysi antik davrining (mil. avv. IV – milodiy IV asrlar) yirik arxeologik yodgorligi bo'lmish Mingtepa shahar xarobasida 2012–2022-yillar davomida keng qamrovli ilmiy tekshirish ishlarini olib borishdi.

O'tgan yillar davomida yodgorlikning 20 dan ortiq nuqtasida arxeologik qazishma va kuzatuv ishlari amalga oshirildi. Tekshiruv ishlarida har ikki tomondan 8 arxeolog, 10 texnik va Andijon davlat universiteti professor-o'qituvchilari, tarix fakulteti talabalari qatnashmoqdalar. Asosiy maqsadimiz arxeologik materiallar asosida Mingtepa shahrini Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni va rolini, uni Buyuk Ipak yo'li savdo-iqtisodiy aloqalarida qatnashuvi, xo'jalik faoliyatini tahlil etishdan iboratdir. Keyingi yillardagi qazishmalar jarayonida shaharning tarkibiy tuzilishi (ark, ichki shahar va tashqi shahar), moddiy madaniy qatlamlari stratigrafiyasi, mudofaa tizimi va bu yerda yashagan aholining hunarmandchiligi, san'ati, urf-odati, diniy tasavvurlari to'g'risida yangi ma'lumotlar olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Birinchi arxeologik o'rganish obyekti – Mingtepa g'arbiy mudofaa tizimida joylashgan 9-burjda amalga oshirildi. Unda mazkur mudofaa devorining konstruktiv xususiyatlari, madaniy qatlamlari, qurilish bosqichlari kabi xususiyatlari to'g'risida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Qazishmada eng qadimgi monolit (birlamchi) paxsa devor ajralib turadi. Mazkur devorning quyi qismidagi eni 5,45 metr, yuqorida esa 4 metr, saqlangan balandligi 6 metr. Bunday mudofaa devorlari Farg'ona vodiysida ilk antik davr (mil. avv. IV asr) da paxsadan buniyod etilgan va eng qadimgilaridan hisoblanib, unda burj-kuzatuv minorasi va shinaklar bo'lgan[7:61-62]. G'arbiy devorning ushbu nuqtasida to'g'ri burchak rejali kuzatuv minoralari ma'lum vaqt o'tgach paxsa devordan so'ng g'ishtdan qurilgan, ular ikki yon tomonni ham himoya qilishga mo'ljallangan bo'lib, mahobatli o'chamga ega (18x10 m).

Qadimgi mudofaa devorini qurilishida foydalanilgan qurilish materiali (nihoyatda metin bo'lib ketgan paxsa bloklari) va devor konstruksiyasining mustahkamligidan mingtepalik ajdodlarimiz Yaqin Sharqda ma'lum bo'lgan devor buzadigan qurilma (mashina)dan xabardor bo'lishganini bildiradi.

Mudofaa tizimini o'rganilishi natijasida uni 3 ta qurilish davriga ega bo'lganligi kuzatildi. Birinchi davrda (mil. avv. IV–III asrlar) asosiy o'q devor qurilgan, u madaniy qatlamlar ustiga yaxshi pishirilgan paxsadan tiklangan bo'lib, yuqorida aytiganidek blok-blok qilib qo'yilgan. Mazkur qatlamdan Sho'rabadshot davriga oid (mil. avv. IV–I asrlar) guldor sopol parchalari topildi. Paxsa bloklaridan (50x50, 40x45sm, 40x30 sm) tiklangan mudofaa devorlari Farg'onaning bronza davri yodgorligi Dalvarzinda ham qayd etilgan[12:5; 13:15]. Keyingi ikkinchi qurilish davrida (mil. avv. II–I asrlar) qadimgi devorga yana mustahkamash uchun qo'shdevor va kuzatuv minoralari qo'shilgan. Bu Farg'onaga sharqdan katta xavf mavjudligidan darak beradi. Bu xavf Xitoy tomondan bo'lishi mumkin. Chunki Xan dinastiyasi (mil. avv. 206 – milodning 220-yillari) bu davrda tez rivojlanib kuchayayotgan edi. Uchinchi qurilish davrida (milodiy I–IV asrlar) esa asosiy devorni yanada mustahkamlab ta'mirlash maqsadida devor ostki qismidan 2,5 m balandlikda paxsadan qo'shimcha devor – qo'shdevor qo'shib, uning ustida askarlar harakatlanishi uchun 1 metrli yo'lak (?) bo'lganligi aniqlandi. Aynan shu davrdan shahar devor ustidan turib himoya qilingan bo'lishi mumkin.

Mingtepa qadim mudofaa tizimi chuqr o'ylangan murakkab injinerlik inshootidir. Bu o'z navbatida mudofaa tizim mukammal ishlangan shaharlarda yuksak rivojlangan harbiy bilimlar bo'lganligidan darak beradi. Bunday kuchli va uch qatorgacha mukammal himoya tizimli xarbiy inshootlarini qurilishi yana davlatlar o'rtasida mazkur davrda qarama-qarshiliklar mavjudligi va tashqi tahdidlarga ishoradir.

TARIX

Ikkinchchi arxeologik qazishma Mingtepa yodgorligining janubi-g'arbiy burchagidagi markaziy burjda olib borildi. O'tgan vaqt mobaynida eng yuqoridagi ikki: 1- va 2-qurilish qatlamlari tozalab ochildi. Ular milodiy I–III va IV–V asrlar bilan sanalanadi. Mingtepa tarixida birinchi marta tırnab gul solingen idish parchalari topildi. Ularda antropo-zoomorf (adam va hayvonat olami) tasvirlar aniqlandi. Bunga qo'shimcha qilib aytamizki, tırnab gul solish usuli texnik va davriy jihatdan oldingilardan oz bo'lsada farq qiladi. 2014–2015-yillardagi qazishmalar paytida "tırnab" naqsh solingen bir necha sopol parchalari topildi. Hozirda 4 ta parchada 7 ta tasvir aniqlandi. Marhamatlik ta'mirchi rassom Alisher Ummatov tomonidan sopollardagi tasvirlar tiklandi.

Birinchi sopol parchasini ustki qismiga sırtlon (giyena-yoldor bo'ri)ni bo'yin va bosh qismi tasviri tushirilgan. Sopolning ichki tomonida jangchi sipohiy tasviri va uni orqaroq tomonida tumshuqlari yaqqol ko'rinishi turgan harakatdagi qush tasviri bor. Odam tasvirida boshini bir bo'lagi ko'rinishi turibdi, oyoq qismlari, chap qo'lining bir qismi saqlanib qolmagan, o'ng qo'lini beliga tirkab turibdi. Faqat yelka, qorin, ko'krak, bo'yin qismlari kiyimlari bilan ko'rinishi bizgacha yetib kelgan. Ko'krak qismida "krest" qilingan tasma yoki ust-bosh detali tasvirlangan, chap qo'li bilan qurol (qilich?) ushlagan. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarida qadimdan Xumo qushi ozodlik, g'alaba timsoli sifatida gavdalantirilgan. Jangchining orqa qismida tasvirlangan Xumo qushini jangchiga madad ruhi va g'alaba bag'ishlab turibdi, deb izoh berish mumkin.

Mingtepada topilgan ikkinchi sopol parchasini ichki tomonida afsonaviy Farg'ona tulporini tasvirini ko'rish mumkin. Otning bosh va dum qismi saqlanib qolmagan. Mingtepadagi sopolga tushirilgan arg'umoq tasviri qo'shni Qirg'iziston respublikasining Aravon va Ayrimachtaudagi toshga so'qligan rasmlaridagi otlar tasviriga juda o'xshaydi[9:180]. Sopol parchasining tashqi tomoniga tovus tasviri chizilgan. Lekin uning bosh va oyoq qismidan tashqari yarim tasviri saqlanib qolgan xolos. Tovus qushi mifologik jihatdan ham ko'rinishi chiroqli bo'lganligi uchun qadimdan Farg'ona va qo'shni hududlarda e'zozlanib kelingan. Bu go'zal mavjudotlar ko'proq hukmdorlar saroylari hiyobonlarida parvarishlangan va saroyga o'ziga xos ko'rk bag'ishlab turgan.

Yana bir uchinchi sopol pachanining sırtida kabutar bosh qismi tasvirlangan. Shunga o'xshash qush tasviri milodiy V–VII asrlarga taalluqli Varaxsha saroyning sharqiy zalida uchraydi[22:33-35]. Yana bir sopol parchasidagi tasvirlar mazmuni noma'lum bo'lib qolmoqda[21:18-19].

Shunday qilib, O'zbekiston-Xitoy qo'shma arxeologik kompleks ekspeditsiyasining Mingtepa materiallari ichida birinchi marta topilgan qadimgi tasviriy san'at namunalari alohida ajralib turadi. Mazkur topilmalar Farg'ona vodiysi xalqlarini bundan 2000-2200-yil oldingi diniy-mafkuraviy qarashlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchchi qazishmada asosiy e'tibor milodiy III–V asrlarga oid qurilish qoldiqlarining quyi qisnidagi va ilgarigi davrga oid me'moriy qoldiqlarini aniqlashga qaratildi. Natijada uchta ketma-ket qurilgan xona va ularni to'rt tarafdan o'rəb turgan yo'lak (4 ta uzun tor xona) lar ochildi. Bu xonodonlar devorlari bevosita Davan davri (mil.avv. IV – milodiy IV asrlar) ga oid xona devorlari ustiga qurilgan. Bu yerdan temir ishlab chiqarishdan xabar qiluvchi alohida topilmalar – toshqol parchalari ham ko'plab topildi. Yana surmatosh (ayollar kosmetikasi jihoz) va qo'rg'oshin quymasi qo'lga kiritildi. Ikki tomonlama tırnab gul solingen qizil angob sopol idish namunalari topildi.

Uchinchi arxeologik qazishma ichki shaharning shimoli-g'arbiy burchagida olib borildi. Bu yerdan yakka tartibda o'ra go'rga chalqanchasiga qo'yilgan jasad topildi va u farg'onaliklarni dafn marosimlari va diniy e'tiqodlari to'g'risida xabar beradi. O'ng qo'li yaqinida sopol idish – xurmacha maxsus chuqurchaga qo'yilgan edi, chap qo'li oldida temir pichoqlar (3 ta) va poyonak (2 ta) (nakonechnik streli) aniqlandi. Mazkur urf-odatlar – marhum boshini g'arbga qo'yib, tananing g'arb-sharq yo'nalishida qo'yilishi, dastgohda yasalgan sopol idishni maxsus chuqurchaga joylashtirilishi, temir pichoqlar bizga Eylaton madaniyatining Oqtom va Kungay mozorlaridan ma'lum va bu qabr mil. avv. V–IV asrlar bilan sanalanishi mumkin. Yana bunga eng yaqin o'xshashlik Mingtepedan 20 km. shimoli-g'arb tomonda, Asaka shahri yaqinida joylashgan ko'hna Niyozbottir qabristoni materiallarida kuzatiladi[15]. Shuningdek, tashqi shahar mudofaa devoridan chetroqda o'zlashtirilgan paxta maydonida 1 metr chuqurlikda vodiy arxeologiyasida birinchi bor shahar qabristoni (nekropoli) qayd etildi va undan ko'plab yangi ma'lumotlar olindi.

To'rtinchchi arxeologik qazishma ichki shaharning markaziy tepaligi (Zindontepa) – arkda amalga oshirildi. Asosan o'tgan yillardagi qazishmalar tozalandi va ba'zi aniqliklar kiritildi. Ya'ni,

1986-yili topilgan va qalnligi 4,85 metr bo'lgan tagkursini chetki qirrasi aniqlandi. Salkam 5 metrlik tagkursi ustiga qurilgan bino mahobatini tasavvur qilish qiyin emas. U paxsa bloklari va xom g'ishtlardan tiklangan. Hozirda uni uch tomoni kovlab aniqlandi. Qazishmada pol ustida bir-biriga yaqin joylashgan 4 ta o'choqlar qayd etildi. Bir sathda bir necha o'choqlarni uchrashi 2019-yili akademik A.Asqarov rahbarligida Norin tumani Uchtepa qishlog'ida olib borilayottgan qazishmalarda qayd etilgan. Tagkursi (platforma) va uni ustidagi maxobatli bino so'zsiz diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu saqlangan qism hokim qarorgohi va saroyi joylashgan ark qoldig'i deyishga asos bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek-Xitoy qo'shma arxeologik ekspeditsiyasining amalga oshirgan ishlari natijalari tahlili quyidagi dastlabki xulosalarni bildirishga imkon beradi:

1. Arxeologik yodgorlik tarkibiy tuzilishi jihatdan ichki va tashqi shaharlardan iborat bo'lib, ark qoldiqlari ichki shaharda joylashgan bo'lib, uni markaziy qismi saqlangan, xolos. Bu yerda sal kam 5 metr qalnlikda tagkursi (platforma) ustiga qurilgan mahobatli bino qoldiqlari (pol va bir necha o'choqlar) qayd qilindi. Ichki shahar asosiy yashash joyi bo'lib qolgan. Shuning uchun 2-bosqichida devorlar burjlar bilan kuchaytirilgan. Ichki shaharning mudofaa inshootlari deyarli to'la saqlangan. Xitoylik hamkasblar rekonstruksiyasi bo'yicha shimol va janubda 12 tadan, g'arb va sharqda 20 tadan kuzutuv burjlar bo'lgan, jami 64 ta. Tashqi shaharning mudofaa tizimi qoldiqlari o'tgan asrning 40-50-yillarda qayd etilgan, lekin ular o'rganilmagan edi. Xitoylik hamkasblarimizning Chin mamlakatidagi Loyan, Yechen qadimgi shaharlarida foydalananilgan "Tan chan" asbobi yordamida tashqi shahar mudofaa devori va shahar qabristoni aniqlandi. Buni bizlar Farg'ona arxeologiyasidagi katta yutuq deb hisoblaymiz. O'tgan yillardagi A.N.Bernshtam, Y.A.Zadneprovskiy, B.H.Matboboyevlarni yodgorlikdagi olib borgan izlanishlari natijasida ichki shahardagi beshta, mudofaa devorlaridagi uchta qurilish qoldig'i bo'lganligi arxeologik jihatdan qayd etildi. Arxeologik tekshirish ishlarida qo'lga kiritilgan topilmalarga ko'ra, Mingtepa qadimgi shahrini qurilishi boshlanishi mil. avv. IV–III asrlarga va nihoyasi milodiy IV–V asrlarga to'g'ri kelmoqda, bu sanalar bizning oldingi qilingan xulosalarimizga zid emas[14:71-72].

2. Shaharning ikki darvozasi (g'arbiy va janubiy) o'rni topildi. Biroq darvozalarni konstruktiv tuzilishi haqida biror narsa aytish qiyin. Shahar darvozasi oldidagi himoya tizimi kompleksi kovlab ochilmoqda. Qazishmalardan ayon bo'lishicha, darvozalarga katta e'tibor berilib, kirish qismining mudofaa salohiyati har ikki tomonidan cho'zinchoq xonalar qurilib kuchaytirilgan.

3. Darvoza yonidagi ikki burjnинг qurilish bosqichlari stratigrafiyasи va me'moriy yechimlari o'rganildi. G'arbiy mudofaa devorining o'rta qismidagi qazishmada eng qadimdagи mudofaa devori to'g'risida ma'lumotlar olindi. Eng qadimgi mudofaa devori madaniy qatlama ustiga qurilgan[17:21, Рис. 3.]. Buni yodgorlikdan aniqlangan Sho'rakashot davrining bo'yoq bilan gul solingan sopol idish namunalarini uchrashi ham tasdiqlaydi[17:33, Рис.19,1-2.]. Shahar himoyasi – mudofaa tizimining tayanch bo'g'inlariga katta e'tibor qaratilgan. To'rt burchagida 4 ta markaziy burj-minoralar qurilgan. Minora qadimgi devorga yopishtilib tiklangan (o'lchami 10 x 18 m). Shuning uchun qurilishning 2- va 3-bosqichlarida devorlar minora va qo'shdevorlar bilan kuchaytirilgan. Ikki marta qilingan qayta qurilishlar natijasida mudofaa devorining umumiyligi qalnligi 7,3 metrga, yuqoridagisi 3,4 metrga, balandligi 6 metrga borgan. Ichki shahar mudofaa devorining umumiyligi 2,6 km va tashqi shahar devori uzunligi 6,8 km. Mazkur raqamlar tuproq ishlarini ko'lamini ulkanligini ko'rsatadi. Bunday mahobatli himoya devori va burj-minoralar vodiying boshqa yerida hali aniqlangan emas. To'rburchak rejali minoralar vodiyya Eylaton shahar xarobasida paydo bo'ladi (mil. avv. VI–III asrlar) va mukammalasha borgan. Eylatondagi minorada bir xona (qorovulkxona) ochilgan bo'lib, darvozaxona vazifasini bajargan bo'lishi kerak. Platforma (tagkursi) guvalakdan tiklangan, ustiga yirik g'ishtlardan (devg'isht) minora qurilgan[7:61]. Bizningcha Mingtepani to'rt tomonida darvozalar bo'lib, ulardan markaziy darvoza 9- va 10-minoralar oralig'ida joylashgan bo'lishi kerak. Ko'plab belgilarga ko'ra, Xitoyning antik davr shaharlaridagi darvozalarga o'xshab ketadi. Ularda darvozalar to'rt toboqli (qanotli) bo'lib ikki chekadagilar "shohona" darvoza deb imperator uchun, ikki o'rtadagisi oddiy xalq uchun mo'ljallangan.

4. Saqlanmagan tashqi shahar bizning fikrimizcha, qadimda notinch paytda atrofdagi ko'chmarchilar yurtalar tikib vaqtincha to'xtaydigan va yashaydigan hudud hisoblanib o'rta asrlarda rabodga aylangan bo'lishi mumkin hamda kamida ikki tomonida darvozalar joylashgan. Keyingi

TARIX

o'rta asrlarda Andijonni 3 ta, O'shni 3 ta darvozalaribo'lGANI bu fikrni tasdig'iga xizmat qiladi[18:98-99].

5. O'zbek-Xitoy qo'shma ekspeditsiyasi aniqlagan sopol, tosh va suyakdan yasalgan topilmalar miloddan avvalgi IV – milodiy V asrlar bilan sanalanadi[14:71-72]. Ko'hna Mingtepa 500-700 yil tarix sahnasida avval kichik makon sifatida, so'ngra yirik boshkent maqomigacha bo'lgan tadrijiy (evolyutsion) yo'lni bosib o'tgan shahar edi.

XULOSA

Arxeologik qazishmalarga ko'ra, Mingtepa antik davrda (mil. avv. IV – milodning IV asrlari) ipak yo'li bo'yidagi hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan shahar edi. Mingtepa yodgorligini Ershi shahri bo'lishi mumkinligi aksariyat farg'onashunoslar tomonidan tan olingan[1;3]. Buning bir necha sabablari bor[19]:

1. Mingtepa arxeologik kompleksi (mudofaa devorlari, ichki va tashqi shahar, hunarmandchilik buyumlari) davriy jihatdan Xitoy yilnomalarida keltirilgan vaqt – mil. avv. 138-115 yillarga to'g'ri keladi. Madaniy qatlamlar va qurilish qoldiqlari salmog'i ham yetarlicha.

2. Xitoy manbalari xabar bergan Ershi «o'rta shahri» qoldiqlari vodiyya faqat Mingtepada saqlangan (maydoni 40 hektardan ziyod)[4]. "O'rta shahar" ikki qator kuchli mudofaa devorlari bilan o'ralgan, ular arxeologik jihatdan qayd etilgan[2:155-161, Рис.2].

3. Manbalarni sinchiklab o'rganilsa, Ershi xitoyliklarni vodiya kirib kelishidagi YU (Yuchen)dan keyingi shahar edi. Mavjud geografik holatga ko'ra, ular Sharqiy Farg'onada joylashgan bo'lishlari kerak[4:162]. Biz keltirib o'tgan dalil-asoslarni Farg'ona vodiyisida keyingi 70 yilda o'tkazilgan arxeologik qazuv ishlari ham tasdiqlaydi. Chunki aynan vodiy sharqiy tomonlari ilk dehqonchilik, eng qadimgi shaharlar va dastlabki davlatchilik kurtaklari paydo bo'lgan makon edi, uni B.X.Matboboyev "sharqiy Farg'ona urbanlashgan hududi deb ataydi" [18:22]. Mil. avv. III-II ming yillikka taalluqli Shagim qabristoni materiallari va Qorasuv shahri maktab muzeidan topilgan «tarodzi toshlari Sharqiy Farg'onada ilk bronza davriga oid yodgorliklar hisoblanadi. Dehqonchilik bilan bog'liq asosiy yodgorliklar 60-70 foizi shu hududda joylashgani aniqlangan. Ta'kid joizki, vodiy hududida mil. avv. VIII-VII asrlarda voha davlatlari paydo bo'ladi[16:23]. O'rganilayotgan davrda esa mayda davlatlar Qadimgi Farg'ona podsholigiga birlashgan edilar[20:48-49]. Qolaversa, farg'onashunos N.G.Gorbunovning arxeologik materiallarga asosan Davan davlati Sharqiy Farg'onada (Andijon, O'sh va Jalolobod viloyatlari) joylashgan degan salohiyatli xulosasi ham bor[8:118]. Xulosa qilib aytganimizda, Farg'ona vodiyisidagi Davan podsholigi va uning poytaxti Ershi (Mingtepa) manbalarda birinchi marta mil. avv. II asrlarda tilga olinadi. Oxirgi marta 280-286-yillari Xitoy o'z elchisini Farg'ona podshosi huzuriga yuborgani to'g'risidagi xabarda eslatib o'tiladi. Shundan so'ng bu nom uchramaydi. Faqat 436-yildagi xabarda imperator Vey elchisi Dun Van Polonaga, o'tmishdagi Davanga bordi, deyiladi. Demak, Davanda siyosiy vaziyat o'zgargan va nomi ham boshqa termin bilan atalgan[5:104-130].

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi topilmalari va natijalari ham qadimgi Farg'ona Davan davlati poytaxti Ershini Mingtepa o'rnida bo'lganligini tasdiqlamoqda. Hatto uzoq vaqtlardan beri o'z maqolalarida Ershi – bu Axsikent deb hisoblovchi A.Anarboyev ham "Vodiynama" jurnalidagi (2016-yil, 1-soni) maqolasida Mingtepa – bu Ershi degan fikrni to'g'riligini tan oldi.

Mingtepa bizni fikrimizcha "katta shahar" (xitoychada "dao chen") tipidagi shaharlar qatoriga kiradi. Xitoy manbalari xabaricha Davanda ikki qator devor bilan himoyalangan shaharlar bo'lgan[6]. Hozirda olib borilgan arxeologik natijalar Mingtepani ana shunday shaharlar qatoriga kiritishga asos bo'ladi. Ta'kid joizki, Xitoy manbalarida boshqa hududlardagi davlatlarga nisbatan davlat poytaxti degan termin ishlatilmagan. Xitoyliklar Ginshi termini bilan faqat o'z davlatlari poytaxtlarining tushinganlar. Boshqa davlatlar poytaxtlarini du, ya'ni qarorgoh, rezidensiya deb ataganlar[4:149].

Sharqshunos A.Xo'jayev yaqinda e'lon etilgan maqolasida poytaxt shahar deb Yuan-cheng degan shahar nomini keltiradi. Agarda bu ma'lumot boshqa tadqiqotlarda ham tasdig'ini topsa, bu so'zsiz N.Y.Bichurinni xatosini kechikib bo'lsa-da tuzatish bo'ladi... Ammo Yuan-cheng shahri xaqidagi ma'lumot hozircha faqat A.Xo'jayev tarjimalarida uchramoqda[23:25-27]. Yevropalik va Rossiyalik sinologlarning bu haqdagi fikrlari bizga noma'lum. Qolaversa, o'tgan asrning 70-80-yillarida Sankt-Peterburglik farg'onashunos Yu.A.Zadneprovskiy yozma manbalarni diqqat bilan

o'rganib A.Xo'jayev fikriga yaqin mulohazani aytib o'tgan edi. Ya'ni, Davanda xuddi qo'shni Kanguy davlatiga o'xshab ikkita poytaxt mavjud edi va ulardan biri qarorgoh (rezidensiya) bo'lishi kerak, degan fikrni bildirgan[11]. Kanguyda yozgi va qishki qarorgohlar mavjudligi tarixiy fakt. Shu nazardan qaraganda Yuan-cheng qarorgoh bo'lishi mumkin. Chunki, tadqiqotchilar N.Y.Bichurin tarjimalarida Yuan-cheng toponimi "резиденция даваньской" yoki "даванская резиденция" deb olinganini ta'kid etadilar[23:26].

Yuan-cheng shahri haqida qiziqarli g'oyani ilgari surayotgan A.Xo'jayev uni Andijon o'rnila bo'lishi mumkin degan fikrni bildiradi[23:27]. Bu fikrni qo'llab-quvvatlasa bo'ladi. Chunki Eski shahar qismidan aniqlanayotgan arxeologik topilmalar va ular sanasi bunga zid emas. Hozirda Andijonni Eski shahar qismida (Suroat, Sarvontepa, Tutzor ko'chalari o'rami) 100 sm. gacha va undan ziyod qalinlikdagi 15-20 hektarli hududda quyi qatlamlardan 2400-2600-yillik arxeologik kompleks topib o'rganildi va Andijonni 2500 yillik sanasi aniqlandi[18].

Agar yuqoridaqilarni hisobga olsak, Mingtepa ko'plab belgilari ko'ra poytaxt maqomiga ega bo'lgan shaharlar tipiga kirishi oydinlashadi. Qadimgi shahar mil. avv. IV–III asrlarda shakllangan, milodning V–VI asrlaridan keyin Mingtepada hayot to'xtagan. Buning sabablari hozircha noma'lum bo'lib qolmoqda.

Mingtepada olib borilgan arxeologik tekshirishlar Ershi – transkontinental yo'llar (Buyuk Ipak yo'li) tizimida joylashgan shahar bo'lib, Baqtriya, Ustrushona, Choch kabi hududlarni Xitoy bilan bog'lagan. Yuz yillar davomida Ipak yo'li bo'yidagi hunarmandchilik, savdo markazi sifatida geosiyosiy rol o'ynab, karvonlar qo'nim topgan yirik shahar bo'lgan. Bunga Farg'ona vodiysisidan topilgan Xitoyning u-shu, kay yuan tun bao, xotsyuan deb nomlanuvchi tanga pullari, ipak matolari va ko'zgulari dalolat beradi.

Mingtepani poytaxt va yirik shahar ekaniga vodiyligi arxeologiyasida birinchi bor shahar qabristonini (nekropoli) topilishi ham qo'shimcha dalil bo'ladi. Mahalliy aholi tomonidan Changalmozor deb ataladigan qabriston tashqi shahar mudofaa devoridan chetroqda o'zlashtirilgan paxta maydonida 1 metr chuqurlikda qayd etildi va undan ko'plab yangi ma'lumotlar olindi. Hozirda ushbu joy ekin maydoniga aylantirilgan bo'lib, sirtida mozor belgilari yo'q, lekin 50-100 sm. chuqurlikda yuqori qismi buzilib ketilgan qabrlar uchraydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gorbunova N.G. The culture of ancient Ferghana (VI century B.C. – VI century A.D.). – England. BAR International Series 281. 1986.
2. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даваньская (Ферганская) столица Эрши // СЭ, №4. 1948.
3. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. Материалы и исследования по археологии СССР, № 26. – М. – Л., 1952.
4. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том I. Москва-Ленинград. 1950.
5. Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до н.э. – VII в.н.э. (историко-географический обзор по древнекитайским источникам). Москва, 1989.
6. Боровкова Л.А. Царства Западного края. Москва. 2011.
7. Горбунова Н.Г. Оборонительные сооружения на поселениях древней Ферганы // Генезис и пути развития процессов урбанизации Центральной Азии. ТД конференции. Самарканд. 1995.
8. Горбунова Н.Г. Поселения Ферганы первых веков нашей эры: Некоторые итоги исследований // СА. 1977. №3.
9. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М., – Л., 1962. – № 118.
10. Заднепровский Ю.А. Исследование древнего Касана // АО 1983. Москва, 1985.
11. Заднепровский Ю.А. О столичных центрах Давани (Древней Ферганы) // Взаимодействие культур и цивилизаций. Санкт-Петербург, 2000.
12. Заднепровский Ю.А. Укрепления чустских поселений и их место в истории первобытной фортификации Средней Азии // КСИА. Вып. 147. Москва. 1976.
13. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и памятники раннежелезного века Средней Азии. Автореф. дисс..докт. ист. наук. Москва. 1978.
14. Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х. Городище Мархамат (некоторые итоги изучения) // В кн.: ИМКУ. Вып. 25. – Т., 1991.
15. Козенкова В.И. Археологические работы в Андижанской области в 1956 г.// КСИИМК. Вып.76. 1959.
16. Матбабаев Б. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари//Ўзбекистон тарихи. №1. 2002.
17. Матбабаев Б.Х. и др. Отчет Узбекско-Китайской совместной археологической экспедиции о проделанных работах на городище Мингтепа в 2012 году. Самарканд. Архив ИА АН РУз. 2013.

TARIX

18. Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древний и средневековый Андикан (историко-археологическое исследование). Ташкент. 2011.
19. Матбобоев Б.Х. Фарғонанинг қадимги шаҳарларини жойлашган ўрни муаммолари. ОНУ. 1995. №9.
20. Матбабаев Б.Х. Раннесредневековая культура Ферганы (на основе исторического анализа археологических источников V-VIII вв.). Автореф. докт. дисс. Самарканд, 2009.
21. Матбобоев Б.Х., Умматов А. Мингтепадан топилган қадимий ноёб тасвирий санъат асари // Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент, 2019.
22. Ремпель Р.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. Ташкент, 1961.
23. Хўжаев А. Хитой манбаларида “Эрши” топоними ҳақида // Турон тарихи. №1. Тошкент. 2011.